

# **O'QUVCHILARNING SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SO'Z TURKUMLARINING AHAMIYATI**

**O'rino boyeva Odinaxon Foziljonovna**

Andijon viloyati Andijon tumani 37 - umumiyl o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining savodxonligini oshirishda muhim sanalgan so'z turkumlarining o'rgatish metodikasi haqida fikrlar bildirilgan. So'z turkumlarini o'rganish orqali o'quvchining so'z boyligi oshadi, og'zaki va yozma nutqi o'sadi va imloviy savodxonligini rivojlantiradi

**Kalit so'zlar:** so'z turkumlari, fe'l, ot, savodxonlik, nutq, imlo, grammatika, metod

**Abstract:** In this article, opinions are expressed about the teaching methodology of word groups that are considered important in improving the literacy of schoolchildren. By studying word groups, the student's vocabulary increases, oral and written speech grows, and spelling literacy develops.

**Key words:** word groups, verb, noun, literacy, speech, spelling, grammar, method

**Аннотация:** В данной статье высказываются мнения о методике обучения словосочетаниям, которые считаются важными в повышении грамотности школьников. За счет изучения групп слов увеличивается словарный запас учащегося, растет устная и письменная речь, развивается орфографическая грамотность.

**Ключевые слова:** словосочетания, глагол, существительное, грамотность, речь, правописание, грамматика, метод.

## **KIRISH**

Kuzatishlardan ma'lumki, sòz turkumlari ustida ishlash òquv dasturi talablariga binoan, birinchi sinfdan boshlansa ham uni o'rganish jarayoni metodik jihatdan tòrt bosqichga bòlinadi. Sòz turkumlari boshlanğich ta'limda elemantar nazariy tushunchalar, boshlanğich bilimlar asosida amaliy tarzda òrgatiladi. Yuqorida tòrt bosqichga bòlingan metodik jihatning birinchi bosqichini tòliq amaliy o'rganish bosqichi deb nomlaymiz. Chunki bu bosqichda hech qanday

nazariy ma'lumotlarsiz söz turkumlari ustida ishlanadi va birinchi sinfning savod òrgatish va birinchi sinfning ikkinchi yarmiga tögri keladi. Söz turkumlari ustida ishslash metodikasi quyidagi belgilar asosida guruhlarga ajratiladi:

- 1) Lingvistik
- 2) Grammatik
- 3) Morfologik
- 4) Sintaktik

Va shu belgilar asosida guruhlarga ajratilishi söz turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi. Maktab òquvchilariga söz turkumlari haqida umumiylar ma'lumot ( ot, sifat, son, olmosh, fe'l) berilganidan sòng , har bir söz turkumi leksik-grammatik jihatdan alohida òrganiladi. Bu jihat söz turkumlarini òrganishda dastlabki bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay zamin hozirlaydi va shakllantirilgan grammatik bilimlarning asosiy tomonlarini aniqroq ajratib olishga imkon beradi. Maktab òquvchilari dars jarayonlarda milliy òquv dasturida belgilangan tartibda ot, fe'l, sifat, ravish, son söz turkumlarining quyidagi tòrt xususiyatlarni bilib oladilar:

- 1) Sòzlar nimani ifodalashi, ya'ni qanday ma'no bildirishi. Masalan, predmet, uning belgisi, predmetning harakati yoki holati kabi.
- 2) Sòzlarning qanday sòroqlarga javob bòlishi.
- 3) Gap tarkibida qanday gap bòlagi vazifasida kelishi
- 4) Özgarish-özgarmasligi( turlanish va tuslanish)

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Öquvchilar yuqorida kòrsatilgan bilimlar asosida söz turkumlarini taqqoslaydilar, amaliy bosqichda söz turkumlari haqida tushunchalar shakllantiradilar. Ushbu bosqichda öquvchilar nimani òrganganlariga qarab har bir söz turkumining grammatik belgilari haqida bilimlari asta-sekin kengayib, chuqurlashib boradi. Dasturga kòra, birinchi va ikkinchi sinflarda sözlarga javob bòladigan morfologik sòroqlarga qarab tasnif qilinadi. Uchinchi sinfdan boshlab söz turkumi tushunchasi shakllantiriladi. Öquvchilar söz turkumlarining umumlashtirilgan leksik ma'nolari, otlarning birlik va köplikda qòllanishi, bòlishli va bòlishsiz fe'lllar, shu bilan birgalikda ot, sifat, son va fe'llarning gapdagisi vazifasi kabi öziga xos xususiyatlari bilan tanishtiriladi. Bundan kelib chiqadiki, demak, tòrtinchi sinfda söz turkumlarining morfologik, sintaktik

xususiyatlari haqidagi bilimlar borgan sari chuqurlashib boradi, ya’ni oquvchilar otlarning egalik va kelishik qoshimchalari bilan ozgarishi, sifat va son soz turkumlarining gap tarkibida qanday vazifa bajarishini, olmoshlar( kishilik) va ularning kelishiklar bilan turlanishi va shu bilan bir qatorda fe’llarda shaxs-son va zamon ma’nolarini organadilar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, soz turkumlari haqida tushunchani maktab oquvchilarida togri shakllantirish uchun zamonaviy metodlarning orni bagoyat kattadir. Bu mavzuni ilmiy jihatdan yoritish jarayonida , bir qancha metodlarni qollashga kirishdik va oylaymanki, bu maktab oquvchilarida dars jarayonlarida yaxshi samara beradi. Maktab oquvchilariga soz turkumlarini oqitishda “Aqliy hujum”, “Pillapoya”, “Muammoli vaziyat”, “Zig-zag” , “Besh barmoq”, “Dostingga tushuntir” kabi metodlarni qollash yaxshi samara beradi. Organilgan ilmiy ishlardagi kuzatishlar shuni korsatadiki, oquvchiga har bir soz turkumini orgatishda qollanayotgan metod shu soz turkumining xususiyatlariga mos tarzda bolihi kerak. Masalan, FSMU metodi asosida son soz turkumiga xos bolgan tushunchalarni togri shakllantirish ustida ishslash jarayoni 3-sinf oquvchilariga xosligi bilan xarakterli bolsa, “Besh barmoq” metodi barcha soz turkumlarini orgatishda qollana oladi. Boshlanqich sinf oquvchilarida esa kichik guruhlar bilan ishslash samarali natijalar berib, kichik yoshdagi oquvchilarni faollashtirishga yordam beradi. Har bir kichik guruhlarda muammoli vaziyat asosida savollar tuziladi. Savollardagi asosiy mazmun esa darslikdagi bosqichlar asosida berib boriladi. Maktabda morfologiyanı o’qitishning amaliy ahamiyati shundaki, leksikologiyadan egallangan zaruriy bilimlar mazkur bo’limni o’rganishda o’z amaliy ifodasini topadi. O’quvchi mustaqil va yordamchi so’z turkumlarini o’rganishda so’zning o’z va ko’chma ma’nosи, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi ma’noli so’zlarga yana murojaat qilinadi va so’z boyligini oshirish, so’zdan to’g’ri hamda o’rinli foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladi. Orfografiyaning morfologiya bilan aloqadorligi ham maktabda bu bo’limni o’rganishni zaruriyatga aylantiradi. Chunki morfologik prinsip orfografiyaning yetakchi prinsipi sanaladi. Shunday qilib maktab morfologik kursi quyidagi vazifalarni hal qilishni ko’zda tutadi:

- oquvchilarning so’z yasashga, so’zning yangi shakllarini hosil qilishga o’rgatish; so’z zahirasini oshirish, so’zdan to’g’ri va o’rinli foydalanish malakalarini kengaytirish;
- so’zlarning aloqa-munosabat shakllaridan foydalanish malakalarini kengaytirish;
- imloviy savodxonlikni takomillashtirish;

- gap qurish va matn yaratish malakasi ustida ishslash;

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, ravish, fe'l bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarini tushunib olish, ma'nosini aniq tushunishga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinni foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bunda ta'limni o'quvchilarni shaxsiy tajribalari, bevosita

ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtida ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi. O'quvchilarda so'z turkumlarini bilish ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, gul, guldor, guladi so'zlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun: nima? –gul, bu so'z predmet bildiryapti, ko'plikda qo'llanadi – gullar, bu ot; guldor so'zi qanday? So'rog'iga javob bo'lyapti, predmet belgisini bildiryapti, bu sifat; gulladi so'zi nima qildi? So'rog'iga javob bo'lyapti, predmet holatini bildiryapti, bo'lishsiz shaklda qo'llaniladi – gullamadi, bu fe'l. O'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsuslashtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. Masalan, o'quvchilar ot, sifat, son, olmosh, fe'l gap bo'lagi vazifasida kelishini, bog'lovchi gap bo'lagi bo'lmasligini biladilar. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarining ma'nosini aniq tushunishga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinni foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchunso'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatalishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarni boyitish bilan bir vaqtida ularning nutqini o'stirish vazifasini ham amalga oshiriladi.

## **XULOSA**

Sòz turkumlarini òrgatishdagi asosiy vazifa òquvchilarning oğzaki va yozma nutqini òstirish, ularning luğat boyliklarini boyitish, òquvchining shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan sözlarining ma'nosi anglash ular asosida boğlanishli nutq va hikoyalar tuzish, u yoki bu sòzlardan örinli foydalanish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun sòz turkumlarini òrgatish jarayonida sinonim, antonim(bu terminlar berilmaydi)lar ustida muntazam ish olib boriladi, òquvchilar öz va kòchma ma'noli sözlar ularning ishlatalishi bilan tanishtiriladi. Bu holatda ta'limni òquvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita kòrganlari, kitoblardan bilib olganlari bilan boğlash maqsadga muvofiq. Òquvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini inobatga olgan holda jadvallardan foydalanish ham örinli. Ya'ni sinf xonasiga kòrgazmali qurollar qatoriga qoshib qoyish sòz turkumlarini òquvchi xotirasida mustahkamlanishiga yordam beradi. Òquvchi buni faqat dars jarayonidagina kòrib qolmay, darsdan tashqari jarayonlarda ham kuzatadi. Shunday qilib sòz turkumlarini özlashtirishga yordam beradigan asosiy metodik shartlar kichik yoshdagi òquvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni yangi bilim olish uchun qiziqtirish , òquvchilarning nutqiy tajribasiga tayanish, bilimlarning tizimliligi, òquvchilarda lingvistik munosabatni shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishslash hisoblanadi. Òqituvchi sòz turkumlari haqidagi tushunchalarni shakllantirish jarayonini boshqarishi, òquvchilar aqliy faoliyatini tòg'ri tashkil etish uchun zamonaviy metodlar nimaligini tòg'ri anglay olishi va uni vaziyatga mos tarzda qöllashi, sòz turkumlarini qanday yòl bilan tushuntirsa natijaliroq bòlishini kòz oldiga ketira olishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.“Ona tili o’qitish metodikasi” K. Qosimova
- 2.Ona tili va o’qish savodxonligi 1-4-sinf darsliklar
- 3.Ona tili o’qitish metodikasi fanidan o’quv-uslubiy qo’llanma.
4. "O’qish madaniyatini oshirish" ilmiy-amaliy seminari materiallari. 2018
- 5.Ona tili va o’qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun /K. Mavlonova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
6. Boshlang’ich sinf ona tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati. Shukurova H. - O’qituvchi. 2021